

## ГРАФИК DIZAYN TARIXIY JARAYONLARDA

*To‘ramurodov Jo‘rabek Normurod o‘gli*  
*Termiz davlat universiteti magistranti*  
*Tel: +998996751927*  
*e-mail: jurabek.turamuradov@gmail.com*

**Kalit soʻzlar:** Grafik dasturlar, Virtual muzey, veb-sayt, “virtus”, eksponat, Internet

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamda hozirgi globallashuv zamonida grafik dasturlarning ahamiyati va afzallari haqida maʼlumotlar berilgan

Xozirgi globallashuv zamonida I.T soxasiga bulgan talab nixoyatda kattadir. Rivojlangan davlatlarning har bir sohasiga kirib borgan va insoniyatning ogʻirini yengil qilib sohalarni rivojlanishini taʼminlamoqda. Bunday rivojlanish zamonida zamon bilan hamnafas boʻlish hayotiy zaruratdir. Bunday oʻzgarishlar tarix sohasini ham chetlab oʻtmayapti. Oddiy misol, oldinlari tarixiy kinolar va videolarni ishdab chiqishda juda ham koʻp tarixiy dekoratsiyalar, liboslar, aktyorlar jalb qilinardi. Biz yoshligimizda sevib tomosha qilgan “Jumong”, “Saroy javohiri”, “Spartak” kabi seriallar “Gladiator”, “Soʻnggi legion” kabi kinolarni olishga joʻda koʻplab mablagʻlar sarflangan. Zamonaviy tarixda qadimgi dunyo tarixini gavdalandirish va jonlantirish muammo boʻlmay qoldi. Hozirgi davrda tarixiy kinolarni, videolarni, fotolavhalarni ishlab chiqishda grafik dasturlardan unumli foydalanilmoqda. Xozirgi zamonaviy kinolarning deyarli hammasida grafik dasturlardan foydalaniladi. Sababi bunday dasturlar orqali koʻplab pullar iqtisod qilinmoqda. Hozirgi zamonda tarixiy videolarni va kinolarni olishda millionlab mablagʻ kerak boʻlmay qoldi. Siz uchun kerak buladi bitta kuchli kompyuter va kuchli grafik dastur ustasi kerak boʻladi. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan yangi Oʻzbekistonda yangicha dunyoqarash, yangicha tamoyillar shakllanib bormoqda. III renesansga oʻtishda tarix fanining oʻrni nihoyatda beqiyosdir. Zero tarixni oʻrganmay turib kelajakka nazar tashlash, kelajak rejasini tuzish nihoyatda qiyindir. Mana shunday buyuk kelajakni qurishda tarixning mavqeyi nixoyatda kattadir. Zoatan kelajak avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, yoshlarimizni vatanga muhabbatini shakllantirishda tarix bizning asosiy tayanchimizdir. Buyuk bobokalonlarimiz tarixini yoritish, ularning hikmatga boy umrini yoshlar ongiga singdirish, yoshlarimizni ularga munosib ravishda tarbiyalashda tarixning oʻrni yuqori. Endi koʻz oldingizga keltirinnig tarixiy kitoblarni darsliklarni qullanmalarni oʻqitishda oʻsha davrga oid videolar, rasmlar va kinolar yordamida olib borish nafaqat oʻquvchilarning qiziqishini oshirish balki bilimni, vatanga boʻlgan muhabbatini oshirishga, bobokalonlarimizni hurmat qilishga juda

katta ta'sir kursatadi. Shu sabab va bundan tashqari iqtisoliy tomondan ham davlatimizga juda katta daromad keltiradi. Jumladan O'zbekiston tarixi shubhasiz buyukdir. Va bu buyuklikni dunyoga kursatish, jahonning buyuk sivilizatsiga uzining munosib o'rini ko'rsatish kerak. Bu O'rinda virtual muzeylarga to'xtalmasdan iloj yoq.

Virtual muzey (muzey veb-sayti) - muzey materiallarini namoyish etish uchun optimallashtirilgan veb-sayt turi. Taqdim etilgan materiallar turli xil sohalarda bo'lishi mumkin: san'at asarlari va tarixiy asarlardan virtual to'plamlarga va tabiatga aloqador. Virtual muzey veb-saytlarning shunday turiki, unda muzeydagi materiallar ko'rgazmasi amalga oshiriladi. Virtual muzeylarning afzalligi shundaki, ular eksponatlarni saqlash, himoyalash, keng, tez va osonlik bilan ommaga taqdim etishni Internet texnologiyalari yordamida amalga oshiradi. XX asrning 90-yillarida muzeyshunoslikka kirib kelgan "virtual muzey" iborasi bugungi kunda zamonaviy muzeyshunoslikning butun boshli yonalishiga aylanib ulgurdi. Dastlabki vaqtlarda ibora oquvchilar orasida garchi unchalik tushunarli bolmasa-da, lekin chiroyli va yoqimli yangrar edi. "Virtual" sozi "mojiza, haqiqiy, real" manolarini ifoda etsa ham, aslida u lotinchadan tarjima qilinganda "virtus" — xayoliy, faraz qilish sozlaridan kelib chiqqan. Birinchi veb-sayt muzeylari, yani virtual muzeylar Internetda 1991-yilda paydo bo'lgan. Dastlab virtual muzeylar haqiqiy muzeylarning saytlari bo'lgan bo'lsa, keyinchalik shaxsiy veb-sayt — muzeylar paydo bo'la boshladi. Birinchi shaxsiy virtual muzeylar 1994-yilda paydo bo'lgan. Biroq barcha rasm to'plamlari ham virtual muzey bo'la olmaydi. Virtual muzeylarning to'plamlari ikkita o'ziga xos xarakteristikaga ega bo'lishi kerak. Bu virtual turlar va eksponatlarning mukammallashtirish qidiruvidir. Birinchi bo'lib, virtual muzeylarning afzalligini ko'ra bilgan odam Microsoft firmasi rahbari Bill Geyts bo'lgan. Virtual muzeylar nafaqat madaniy — marifiy muassasasigina bo'lib qolmay, balki o'quvchilar uchun katta qiziqish uyg'otuvchi ko'rgazmalarni virtual tomosha qilish imkonini beruvchi dunyo sanati boyliklari jamlamasidir. Virtual muzeylarning real muzeylardan farqi o'qituvchi yordamisiz o'quvchilar mustaqil o'zlari sayohat qilishlari mumkin. Shunday ekan, bu ularga keng imkoniyatlarni yaratadi. Bu nafaqat ilmiy dunyoqarashni rivojlantiradi, balki o'quvchilarning manaviy dunyosini boyitishga asos bo'ladi. Virtual muzeylardan foydalanish o'quvchilarni nafaqat muzey eksponatlari bilan tanishishga, balki Internet tarmog'idan erkin foydalana olish ko'nikmasini hosil qilishga ham imkon yaratadi. Shubhasiz buni ko'rsatish uchun turizm soxasini rivojlantirish, O'zbekistonning shaxsiy brendini yaratish zarurdir. Buning uchun ijtimoiy tarmoqlarda tarixiy ob'ektlarimizni, shaxslarimizni namoyish qilishimiz, O'zbekiston degan davlatning tarixi buyuk bulganligini ko'rsatish va reklama qilishimiz zarurdir bu esa o'z navbatida chet ellik sayyohlarning oqimini oshirishga sabab bo'ladi. Chunki

Jon ismli amerika fuqarosi bu yil qaysi davlatga sayohat qilsam ekan deb ijtimoiy tarmoqlarni kuzatayotgan vaqtda vatanimiz tarixiga oid videolar uning lentasiga yetib keladi va tabiiyki bunday yuqori sifatli videolar qaxramonimiz Jonni befarq qoldirmaydi va bu yilgi sayohatini O‘zbekiston degan sirli diyorga davom ettirishga qaror qiladi maqolam so‘nggida hulosa qilsam, grafik dasturlash tarix sohasining buguni va kelajagi xisoblanadi va biz buni befarq qoldira olmaymiz. Hech qachon san’at va zamonaviy texnologiyalar bir-birini shunchalik uyg‘un tarzda to‘ldiruvchi - 3D tasvirlar sizga muzey va galereyalarning noyob stendlari va eksponatlarini masofadan turib o‘rganishga imkon beradi. Texnologiya tufayli siz hatto raqamli san’at asarlarini ham uyingizdan chiqmasdan turib ko‘rishingiz mumkin, tan olingan jahon durdonalari, endi tanilayotgan iste’dodlar asarlari.

Onlayn yoki virtual san’at galereyalarini san’atni ommalashtirish, butun dunyodagi badiiy va madaniy salohiyatini targ‘ib qilishning eng samarali usullaridan biri deb atash mumkin. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda san’atning har xil va janridagi muzey va badiiy galereyalarning onlayn-resurslari ommabop foydalanish, 3D-turlar, raqamli panoramalar va stendlar, multimediya va animatsiya vositalari faol rivojlanmoqda. San’at muzeylarining 3D-sayohatlari, xalqaro ko‘rgazmalar veb-translyatsiyalari, zamonaviy rassomlarning individual veb-saytlari, onlayn-san’at galereyalari, virtual san’at va san’at galereyalari, raqamli san’at to‘plamlari bugungi kunda keng omma uchun mavjud.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://www.google.com/culturalinstitute>.
2. <https://uz.unansea.com/grafika-dasturlari-turlari-va-imkoniyatlari/>
3. <https://uzbekistan.travel/uz/o/virtual-galereyalar/>
4. <https://www.lenta.uz/post/grafik-dizayn-sohasining-biznesdagi-ahamiyati>